



## Nazar Eshonqul ijodida ma'naviy-axloqiy masalalar

UMIDBEK QODIROV

URDU adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti,

Qodirov.kohinur@mail.ru

Bugungi jamiyatimizda kitob o'qish, kitob o'qiydigan yoshlarni tarbiyalash dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Shu sababli ham muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitobxonlikni rivojlantirish uchun "Yosh kitobxon" tanlovini tashkil qilishni taklif qildilar va bu tanlov har yili minglab yoshlarni birlashtirib kelmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ustuvor yo'nalishi doirasida ham, kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha alohida bandlar mavjud. Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot..." deganida, aynan ilmiy tarbiyani nazarda tutgandir, ehtimol. Chunki, biz sharq xalqlarida odab-axloq har doim yuksak darajada bo'lib kelgan. Jadidlar esa aynan ilmiy tarbiya haqida gapirgandek, menimcha. Nazar Eshonqul ham bu borada fikr bildirar ekan, shunday deydi: "To'g'risini tan olish kerak: kompyuter kitobni siqib chiqargani yo'q, kitob o'qishni yengillashtirdi, kitob o'qishga, kitobni anglashga imkoniyatlarni kengaytirdi, xolos. Men uchun bugungi oddiy planshet – butun boshli kutubxona. Unga jo bo'lgan kitob ilgari katta bir binoga joy bo'lardi. Gap kompyuterda emas, gap ehtiyojda. Kompyuter ko'paygani, yanada takomillashgani emas, kitobga ehtiyoj yo'qolgani xavotirli". [Nazar Eshonqul.T,2018:33] Haqiqatdan ham, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish, bu biz uchun juda katta imkoniyatdir. Axir, tasavvur qiling minglab kitoblar kichkinagina bir "quti"ning ichida joylashadi. Bugun har qanday inson ham, minglab kitoblarga ega bo'lgan kutubxonaga ega bo'lishi mumkin va bu kitoblarni saqlash uchun alohida xonaning ham hojati yo'q. Nazar Eshonqu kitob haqida fikrlarini davom ettirar ekan: "Kitob degan tushuncha bu – ramziy tushuncha. Kitob – odamning ruhini va qalbini poklaydigan, unga qanot beradigan, uni olamiy uyg'unlikda tarbiyalaydigan, insonni olamni sevishga o'rgatadigan, chorlaydigan, da'vat qiladigan, insonni shafqatga, halollikka, mardlikka, adolatga, mehrga, muruvvatga, ezgulikka undaydigan xilqat". [Nazar Eshonqul.T,2018:34]



Ha, kitob har doim insonni ezgulikka chorlaydi. Ajdodlarimiz qilib ketgan qahramonliklar-u, ular qoldirgan ilmiy meros, o‘tganlarning hayot yo‘llari hamma-hammasini kitob orqali bilib olamiz. Agar kitob bo‘lmasa edi, tarix bo‘lmas edi. Tarixi yo‘q xalqning esa, kelajagi ham yo‘qdir. Ijod haqida fikrlarni davom ettirar ekanmiz, aylanib “ijod o‘zi nima?” degan savolga qayta va qayta to‘xtalishga majbur bo‘lamiz. Negaki, ijod shu qadar keng tushunchaki, uni to‘liqroq ochib berish uchun batafsilroq to‘xtalib o‘tishga majburmiz. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam ijod tushunchasining kengligini, odam tabiati o‘zgaruvchan ekanligini ta’kidlaydi. “Tarixni nima harakatga keltiradi, insonni mudom oldinga chorlaydigan kuch quvvat nima? Inson bolasi esini tanibdiki, bu savollar ustida bosh qotiradi, o‘zicha turli javoblarda to‘xtaydi qanoat hosil qilgan bo‘ladi, biroq yangi bir ijtimoiy-tarixiy vaziyat va shunga yarasha yangi bir avlodning maydonga kelishi bilan yana o‘zga bir javob ortidan yo‘lga tushiladi...”. [Ulug‘bek Hamdamov.T,2002:52]

Nazar Eshonqul ijod olami haqida fikrlarini bildirar ekan, bu fikrlar ijodkorning shaxsiy qarashlari ekanligini ta’kidlaydi. “Bir qarashda ijodni, ijodkorlikni ta’riflash osonday tuyiladi. Ammo bu savolga Aristoteldan boshlab, hatto undan oldin ham javob izlangan bo‘lsa-da, hozirgacha barchani qoniqtiradigan fikr aytilgani yo‘q. Har bir buyuk allomaning bu haqidagi qarashlari to‘g‘ri, ayni paytda, to‘liq emasday. Shu sababli mening bu boradagi fikrlarim ham faqat xususiy ahamiyatga ega”. [Nazar

Eshonqul.T,2018:34] Haqiqatdan ham, ijod olami haqida qanchadan- qancha so‘z san’atkorlari fikrlari, qarashlarini ilgari surgan bo‘lsa ham, har doim ijod haqida yangi so‘z, yangi fikr, yangi qarashlar paydo bo‘laveradi. Nazar Eshonqul bugungi ijod jarayoni haqida biroz havotir bilan fikrlarini, qarashlarini bildiradi. “... dumbul, mo‘rt asarlarni adabiyot deb targ‘ib qilish, didni moslashtirish jarayoni keng miqyosida davom etyapti. Bugun bu muhorabaga haqiqiy san‘at asarlari dosh bera olayotgani yo‘q. Bu achinarli hol. Lekin baribir umid bor. Did bir kuni chinakam mo‘jizaga, chinakam hayratga, ilohiy zavqqa, ya’ni chinakam ijodga va ijodkorga muhtoj bo‘ladi. [Nazar Eshonqul.T,2018:35]

Bugun “bozor adabiyoti” degan tushuncha paydo bo‘lgan. Badiiy qiymati past bo‘lgan asarlar “jahon bestsellerlari” nomi ostida kitob rastalariga chiqarilmoqda. Bu “Vaqt va kitobxon sinovidan o‘tmagan” asarlarni sun’iy ravishda qiymatini oshirish, o‘quvchilarni



chalg'itish, badiiy asarlarga bo'lgan qarashlarni salbiy tarafga o'zgartirishga olib kelmoqda. Ya'ni bunday asarlarni o'qigan kitobxonida "jahon darajasidagi asar shumi?", "Bunda hech o'zgachalik, buyuklik va ilohiyot yo'q ekan-ku?",- degan qarash shakllanib qolish ehtimoli katta va shunday bo'lyapti ham. Bu kabi holatlar esa adabiyot targ'ibotini susaytiradi. Haqiqiy adabiyot, haqiqiy so'z san'ati haqidagi tasavvurni, me'yorni va mezonni o'zgartiradi. Asl shoirlar bilan yallachi shoirlarning o'rtasidagi farq yo'qolib, insonlarda didsizlik paydo bo'la boshlaydi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldosh shunday deydi: "Ko'pchilik o'rtasida adabiyot bozor sharoitiga moslashishi qiyin deganga o'xshash qarash bor. Holbuki, adabiyot bozorga eng tez moslashibgina qolmay, o'zi bozor ochib yuborishga ham erishdi. Adabiyot bozorga moslashgani uchun ham bozorbop adabiy mahsulotlar ko'plab yaratilayotir. Milliy adabiyotimizda sarguzashtni aks ettirish, sirli voqealarni tasvirlashga moyillik kuchayib boryotganligi uning bozor talablariga moslashib boryotganligidan dalolatdir. Teatrlar esa deyarli faqat buyurtma asosida yaratilayotgan dramalarni sahnalashtirish bilan band. Keyingi yillarda buyurtmasiz birorta sahna asari yozilmadi hisob". [Qozoqboy Yo'ldosh. T,2006:25]

Bu biroz achinarli hol, albatta. Lekin shunday bo'lsada haqiqiy ijod mahsuli bo'lmish adabiyot namunalari har doim, har zamonda o'z o'quvchisi topgan va topib kelmoqda. Adabiy tanqidchi Ozod Sharafiddinov xotiralariga nazar tashlar ekanmiz, bizning millat naqadar kitobxon bo'lganiga guvoh bo'lamiz. "Sizga yolg'on, menga chin – bundan taxminan 40-50 yillar muqaddam odamlar kitobga navbatga turishardi. Albatta, har kuni emas va har qanday kitobga ham emas. Avval falonday zo'r kitob chiqibdi", degan xabar tarqalardi. Keyin o'sha kitob falon kuni kitob magaziniga kelarmish, degan gap chiqardi. O'sha kuni ertalab 11-12 larga aytilgan do'konga borsangiz, izlagan kitobingiz allaqachon sotilib ketgan bo'lardi. [Ozod Sharafiddinov. T,2004:462]

Bugungi globalashuv davrida adabiyotga ehtiyoj yanada oshdi. Chunki, adabiyot inson qalbini tarbiyalaydigan vositadir. Agar, inson qalbi tarbiyalanib turmasa, unda yovuzlik, hayvoniy hirs kabi illatlar o'zini namoyon qila boshlaydi. Shuningdek, yaxshi adabiyot bo'lishi uchun millatni, yurti sevadigan, haq gapni aytishga qo'rqmaydigan shoir-u yozuvchilar kerak. "Yozuvchi shaxsini, fe'l- aytishda uning asariga qarab bemalol bilish



mumkin. Muallif qanchalik sofdil, samimiy bo'lsa, kitobi ham shunchalik hayajonli, ta'sirchan bo'ladi. Buning ajablanarli joyi yo'q. "Farzand" "otasi"ga tortadi-da!" [O'tkir Hoshimov.T, 2012:232] deganda naqadar haq edi sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov. Umuman, adiblar ijod bilan shug'ullanar ekan, juda ko'p ilmlardan, har xil sohalardan, siyosat olamidan va yana bir qator jarayonlardan boxabar bo'lishi kerak. O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ijod jarayoni haqida: "Haqiqiy yozuvchi bo'lmoq uchun turmushni har taraflama o'rganish, buning uchun uning har sohalaridan xabardor bo'lish kerak... Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo'lgan narsam haqidagi materiallarni puxta o'rganib chiqaman. Men biron joy to'g'risida asar yozmoqchi bo'lsam, o'sha joyni avval necha marotaba ko'rgan esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o'rganib kelaman", [O'tkir Hoshimov.T, 2012:232] degan edi. Ha, rostdan ham ijodkor serqirra bo'lmas ekan, turli-tuman kasb -hunar egalari dillarini maftun qilolmaydi.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. Ijod mashaqqati. O'qituvchi nashr. Toshkent . 1995-yil. 4- bet
2. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. Akademik n. Toshkent. 2018 34- bet
3. Ozod Sharafiddinov. Dovondagi o'ylar. Manaviyat. Toshkent . 2004 yil. 462-bet.
4. Ulug'bek Hamdamov. Badiiy tafakkur tadriji. Yangi asr avlodi. Toshkent 2002y. 152-bet
5. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Sharq nashryoti. Toshkent. 2012-yil. 232-bet
6. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. Yangi asar avlodi. Tosheknt 2006 yil. 25-bet